
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

СОДЕРЖАНИЕ	
I-SEKSIA. JARROHLIKNI DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	4
Tolmasov R.T., Yusupova D.H. JARROHLIKNI DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	4
Yo'ldoshev A.N., Tajiboyev Sh.E., Shaumarov A.Z. ENDOSKOPIK SINUS JARROHLIGI: SURUNKALI RINOSINUSITDA SAMARADORLIK VA XAVFSIZLIK TAHLILI	4
Yo'ldoshev A.N., Shaumarov A.Z. LOR SOHASIDA REKONSTRUKTIV 3D-PRINTER TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETILISHI: PROTEZLAR VA IMPLANTLAR TAYYORLASH IMKONIYATLARI	5
Yo'ldoshev A.N., Shaumarov A.Z. ENDOSKOPIK SINUS JARROHLIGI: SURUNKALI RINOSINUSITDA SAMARADORLIK VA XAVFSIZLIK TAHLILI	6
Umarov F.H., Irismetov D.M., Shamshimetov D.F., Tadjinazarov M.B., Rustamov F.R. TIZZA QOPQOG'I XONDROMALYATSIYASINI JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH USULIMIZ	6
Asatullayev G.Q., Oripov O.I. SHEGREN SINDROMIDAGI QURUQ KO'Z SINDROMINIJARRORHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH SAMARADORLIGI	7
Xakimov M.Sh., Ashurov Sh.E., Kushiyev J.X., Jumanazarov A.U., Jumayev A.A. PILORODUODENAL STENOZLARNI DAVOALSHDA ENDOSKOPIK BALLON DILATATSIYANING AHAMIYATI	8
Arabov A.A., Nazarova N.Z., Alieva I.A. QO'L JAROHATLARI VA TRAVMALARIGA BIRLAMCHI YORDAMDAGI XATOLIKLARNI TAHLIL QILISH	8
Nazarova N.B., Rustamova F.O. YOSH BEMORLARDA YURAK ISHEMIK KASALLIGI: XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISHDAGI PROFILAKTIK STRATEGIYALAR	8
Ilmuratova M.A., Abdullayeva D.T. ATIPIK QO'ZG'ATUVCHILAR BILAN ZARARLANGAN VA ZARARLANMAGAN BEMORLAR GURUHIDA LABORATOR VA FUNKSIONAL KO'RSATKICHLARNI TAQQOSLASH	9
Rayimov O.V. JARROHLIK INFEKSIYALARIGA QARSHI KURASHDA ANTIMIKROB REZISTENTLIK MUAMMOSI VA YANGI YONDASHUVLAR	10
Tolmasov R.T., Shukurov U.H., Abduxalimov A.A. JARROHLIK SOHASIDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLARI	10
Azizov D.H, Muzaffarov O.M. JARROHLIKDA QON YO'QOTISHINING FIZIOLOGIK OQIBATLARI VA QON O'RNINI BOSUVCHI MODDALAR	11
Ergashev B.J. JARROHLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	12
Akbarova D.S, Komolova F.D, Amirqulova M.B. PERIFERIK O'PKA SARATONI (PENKOST)DA OG'RIQ SINDROMI	12
Rayimov O.V. MINIMAL INVAZIV JARROHLIK: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	13
Qadamboyev B.B., Olimova M.M. RUMEX VESICARIUS L. EKSTRAKTI UCH MARTALIK SALBIY KO'KRAK SARATONIDA BCL-2, MTOR VA JNK DARAJALARINI KAMAYTIRISH HAMDA P21 IFODASINI OSHIRISH ORQALI SORAFENIB SAMARADORLIGINI O'RGANISH	14
Sobitova O.A, Mirzamaxmudova G.I, Berdiyev E.A. QIZLARDA O'TKIR GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLASH VA DIAGNOSTIKASIDA ENDOVIDEOLAPAROSKOPIYANI ROLI	14
Xaydaraliyev S.U., Karimov M.SH., Eshmurzayeva A.A. REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA ISHQORIY FOSFATAZA IZOFERMENTI MIQDORIY O'ZGARISHLARINING SUYAK VA TOG'AY TO'QIMASIDAGI DESTRUKTIV JARAYONLARGA BOG'LIQLIGI	15
Tolmasov R.T., Xudoynazarova S.Sh. UMUMIY JARROHLIK SOHASIDA ZAMONAVIY ANATOMIYA FANINING O'RNI	15
Sayfiddinov Sh.X, Qoriyev S.A. JARROHLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	16
Shahloxon Sh. O'TKIR MIYELOLEYKOZ KASALLIGIDA GEPATOPROTEKTORLAR QO'LLANILISHI	17
Norbekova M.H., Alimhodjayeva L. T., Mirzayeva M.A. KO'P O'CHOQLI SUT BEZI SARATONIDA IKKINCHI O'SMA TUGUNIDA IGH TEKSHIRUVNING KLINIK AHAMIYATI	17
Tolmasov R.T., Muzaffarov O.M.ZAMONAVIY TIBBIYOTDA KINDIK CHURRASINI DAVOLASH USULLARI	18
Tolmasov R.T., Elyorjonov P.J. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA UMUMIY JARROHLIK SOHASINING O'RNI	18
SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI DIALIZ BOSQICHIDAGI BEMORLARDA CHAP QORINCHA FUNKSIONAL ESHMETOVA S.I., JABBAROV O.O. HOLATINING EXOKARDIOGRAFIK TAHLILI	19
Saxibayev D.P., Rahimzoda T.E., Xabibullayev Sh.A. JIGAR EXINOKOKKOZINI DAVOLASHDAPUNKSION-DRENAJ USULINI QO'LLASHNING TEXNIK TOMONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	20
Xodjibekov M.X., Alisherova M.A. EVALUATION OF BRAIN TUMORS USING MAGNETIC RESONANCE IMAGING IN ADULT PATIENTS	20

Rozumbetova S.R., Umarova Z.F., Tursunova L.D., Jabbarov O.O. PODAGRIK NEFROPATIYASI MAVJUD BEMORLARDA BUYRAKLARNING KLINIK-FUNKSIONAL HOLATI	*55*
Ilmuratova M.A., Abdullayeva D.T. ATIPIK QO‘ZG‘ATUVCHILAR BILAN ZARARLANGAN VA ZARARLANMAGAN BEMORLAR GURUHIDA LABORATOR VA FUNKSIONAL KO‘RSATKICHLARNI TAQQOSLASH	*56*
Azimova N.A., Maxamatjanova N.M. AURALI MIGRENNIDAVOLASHIDA IGLOTERAPIYANING AHAMIYATI	*56*
Rahmatova M.R, Tulyaganova D.K ARTERIAL GIPERTENZIYALI BEMORLARDANATRIY ISTE’MOLINI CHEKLASHNING AHAMIYATINI TAHLIL QILISH.	*57*
Sharipova M.Sh., Shukurov F.I. AYOLLAR TURLI SHAKLDAGI BEPUSHTLIGINI ERTA TASHXISLASHDA PROTEOM MARKERLARINING PROGNOSTIK IMKONIYATLARI	*57*
Ergashev U.Y., Iriskulov B.U., Zohirov A.R. DIABETIK YIRINGLI-NEKROTIK JAROHATLARNING PATOFIZIOLOGIK O‘ZGARISHLARINI ANIQLASH VA ULAR ASOSIDA KOMPLEKS DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH (KLINIK TADQIQOT)	*58*
Aybergenova X.Sh., Miraxmedova X.T. «TIZIMLI QIZIL BŌRICHALI BEMORLARDA BUYRAK ZARARLANISHINI ERTA ANIQLANSHDA VCAM-1 VA VEGF DARAJALARINING DIAGNOSTIK VA PROGNOSTIK AHAMIYATI»	*59*
Hakimova Sh.B., Ablaqulova P.A., Bobonazarova M.N., Hayitov M.S. VITAVOLT: YARA REGENERATSIYASINI TEZLASHTIRUVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYA	*60*
Xamrayev A.A., Aripova N.N., EgamberdiyevaL.Y. SURUNKALI PANKREATIT BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA OSTEOPENIYA VA OSTEOPAROZ XAVF OMILLARI, D-25(OH)D VITAMININING ENG BARQAROR SHAKLI (KALSIYDIOL) DARAJASINI BAHOLASH.	*60*
Bobonazarova M.N., Hakimova Sh.B., Ablaqulova P.A., Mirkomilov E.M. UYQU ARTERIYASI KASALLIGIGA BOG‘LIQ NEOVASKULYAR GLAUKOMANING DASTLABKI KLINIK TAHLILI	*61*
Raximova M.Q., Gafurov N.N. GBO TERAPIYASINING TIBBIYOTDAGI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VAAMALIY AHAMIYATI	*61*
Mirzoodilova N.A., Umarova Z.F., Tursunova L.D. “KARDIORENAL SINDROMDA RUHIY HOLATNI YAXSHILASH VA HAYOT SIFATINI TIKLASH: TERAPIYANING ASOSIY MUAMMOLARI VA DAVOLASHNING YANGI ISTIQBOLLARI”	*62*
Sayidburxonov S.S., Vaqqosova Sh.G. 2-TIP QANDLI DIABETGA CHALINGAN BEMORLARDA LAPOROSKOPIK MINIGASTROSHUNTLASH OPERATSIYASINI SAMARADORLIGINI BAHOLASH	*63*
Saxiboyev D.P., Xusinov D.O., Mingboyeva Z.O. IKKI TOMONLAMA CHOVCHURRALARIDA LAPAROSKOPIK OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH (TAPP)	*63*
Babaxanov X. M., Sadikova N.G. SEMIZLIK BILAN KECHUVCHI 2-TUR QANDLI DIABETDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	*64*
To‘xtasheva F.A., To‘xtasheva Z.A., Karimova L.M., Saparbaeva J.S. TERAPIYA SOHASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	*65*
Ergashev B.J. ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH	*65*
Ergashev B.J. TERAPIYANING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	*66*
Urunbayeva D.A. Omonova Z.T. 2-TUR QANDLI DIABET BILAN OG’RIGAN BEMORLARDA INSULIN GLARGIN VA LIXISENATIDNING KOMBINATSIYASINING SAMARADORLIGI VA XAVFSIZLIGI	*66*
Qilichov Sh.A., Tursunova L.D. SURUNKALI PIYELONEFRITI BOR BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING KECHISHI VA BUYRAKLARNING FUNKSIONAL FAOLIYATIGA TA’SIRI	*67*
Axmatova K.A., Azizova D.M. GMG - REDUKTAZANING XOLESTERIN BIOSINTEZIDAGI VA ATEROSKLEROZ RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI	*68*
Axmatova K.A., Azizova D.M. PROPROTEIN KONVERTAZA SUBTILIZIN KEKSIN 9 TIP FERMENTINING ATEROSKLEROZDA XOLESTERIN METABOLIZMIDAGI O‘RNI	*68*
Alimova M.M. KLIMAKTERIK SINDROMI BOR AYOLLARDA O‘RIN BOSUVCHI GORMONAL TERAPIYANING SAMARADORLIGI	*69*
Omonova D.U. XORAZM VILOYATI SHAROITIDA ISTIQOMAT QILUVCHI SURUNKALI GEPATIT BILAN OG‘RIGAN BEMORLARNING OVQATLANISHI	*70*
Tolibov D.S., Abdurasulova N.A. BOSH MIYA SURUNKALI ISHEMIYASI I-II-BOSQICHLARIDA MRT-TEKSHIRUVINING AHAMIYATI.	*70*
Sharifova M.F. YURAK ISHEMIK KASALLIGINI KLINIK INSTRUMENTAL VA MOLEKULYAR GENETIK TAHLILGA ASOSLANGAN HOLDA DAVOLASH STRATEGIYASINIINTEGRATSIYALASH	*71*
Maxmudova F.R., Nasirova X.K. GIPOTIREOZNING TUXUMDONLAR ZAXIRASINI KAMAYISHIGA TA’SIRI	*72*
Tolmasov R.T., Xudoynazarova S.Sh. TERAPIYA SOHASI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY ANATOMIYA FANINING O‘RNI	*72*

Olingan natijalar. Shuni ta'kidlash kerakki, hayz davri barcha ayollarda tiklangan. Ob'ektiv tekshiruv ma'lumotlari quyidagilar ma'lum bo'ldi: 23 nafar bemordan 18 tasida vazn o'zgarishi qayd etilmadi, nazorat guruhidagi 1 nafar bemorda va asosiy guruhdan 3 nafari semirib ketgan, tana vazni o'rtacha 6,35 kg ga kamaydi. O'rganilgan boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha natijalar barqaror bo'lib, guruhlar o'rtasida va dastlabki ma'lumotlarga nisbatan sezilarli farqlar kuzatilmadi.

Xulosa: Demak, individual ravishda tanlangan dozalardagi o'rin bosuvchi garmonal terapiya samarali, ishlatish uchun qulay va xavfsiz bo'lib chiqdi. Tekshirilgan barcha bemorlar tomonidan preparatning nojo'ya ta'siri kamayganligi kuzatildi.

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA ISTIQOMAT QILUVCHI SURUNKALI GEPATIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARNING OVQATLANISHI

Omonova D.U.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Kirish. Surunkali gepatit jigarning uzoq muddatli yallig'lanishi bilan tavsiflanadigan kasallik bo'lib, kechishi davomida jigar faoliyatining buzilishi va metabolik o'zgarishlarga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 250 milliondan ortiq inson surunkali gepatit B bilan kasallangan. Ushbu kasallikning kechishida to'g'ri ovqatlanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, parhez tamoyillariga rioya qilinmagan hollarda jigar yuklamasi ortadi va kasallikning og'irlashish xavfi oshadi. Xorazm viloyatining iqlimiy va oziq-ovqat an'analari inobatga olinsa, ushbu hududda istiqomat qiluvchi surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarning ovqatlanish xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarning ovqatlanishi kasallik kechishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Muntazam va to'g'ri tashkil etilgan parhez jigar yuklamasini kamaytirib, metabolik jarayonlarni normallashtirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida Xorazm viloyatida yashovchi 150 nafar surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlar o'rganildi. Ularda ovqatlanish odatlari, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi va dietoterapiya samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bemorlarning 60% dan ortig'i yog'li va qovurilgan ovqatlarni tez-tez iste'mol qilishi, 50% dan ortig'i esa kunlik ratsionida yetarli miqdorda oqsil va muhim vitaminlarni qabul qilmasligi aniqlandi. Shu bilan birga, dietoterapiya joriy etilgan bemorlarda jigar fermentlari (ALT va AST) darajasi 30-40% ga kamaygani, umumiy holat yaxshilangani va kasallik simptomlari yengillashgani qayd etildi.

Tadqiqot maqsadi. Xorazm viloyati sharoitida istiqomat qiluvchi surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarning ovqatlanish xususiyatlarini o'rganish va ularning kasallik kechishiga ta'sirini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Xorazm viloyatida yashovchi 150 nafar surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlar ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot davomida bemorlarning oziq-ovqat tanlovi, parhezga rioya qilish darajasi va asosiy oziq moddalarini iste'mol qilish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Jigar funksiyasini baholash uchun ALT, AST, bilirubin va albumin darajalari laborator usulda tekshirildi. Tadqiqot natijalari SPSS 26.0 dasturi yordamida statistik tahlil qilindi.

Natijalar. O'rganilgan bemorlarning 60% dan ortig'i yog'li va qovurilgan ovqatlarni muntazam iste'mol qilishi, 50% dan ortig'i esa kunlik ratsionida oqsil va muhim vitaminlarni yetarli miqdorda qabul qilmasligi aniqlandi. Surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarning 40% da vitamin D tanqisligi, 35% da esa temir tanqisligi anemiyasi kuzatildi. Parhez joriy etilgan bemorlarda ALT va AST darajalari 30-40% ga kamaygani, umumiy ahvolning yaxshilangani va simptomlarning yengillashgani qayd etildi.

Xulosa. Surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarning ovqatlanish odatlarini o'zgartirish muhim terapevtik ahamiyatga ega. Parhezda yengil hazm bo'ladigan oqsillar (tovuq go'shti, baliq, tvorog), o'simlik yog'lari, B va C vitaminlariga boy mahsulotlar, ko'katlar va mevalar yetarli bo'lishi kerak. Yog'li, achchiq, konservatsiyalangan va spirtli ichimliklar iste'molini cheklash lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, parhez tamoyillariga rioya qilish jigar faoliyatini tiklashda va kasallik simptomlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchi bemorlarning oziq-ovqat odatlarini inobatga olgan holda, individual tibbiy parhez dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

BOSH MIYA SURUNKALI ISHEMIYASI I-II-BOSQICHLARIDA MRT-TEKSHIRUVINING AHAMIYATI.

Tolibov D.S., Abdurasulova N.A..

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish. Bosh miya surunkali ishemiyasi (BMSI) — bu miyada qon oqimining davomli kamayishi natijasida yuzaga keluvchi surunkali kasallik bo'lib, qandli diabet, arterial gipertenziya (AG), ateroskleroz kabi omillar fonida rivojlanadi.BMSI bilan og'rigan bemorlarda MRT-tekshiruvi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda kasallikning kelib chiqish sababi vaMRT (magnit-rezonans tomografiya) tekshiruvi natijalari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Maqsad. Tadqiqotning asosiy maqsadi BMSI 1-2-bosqichlari bilan kasallangan bemorlarda MRT-tekshiruvlarining natijalaridan foydalanib, kasallikning kelib chiqish sababini, bemordagi shikastlanish o'choqlarining lokalizatsiyasini tahlil qilish.

Material va metodlar. Tadqiqotda 45 nafar BMSI 1-2-bosqichlari bilan kasallangan bemor ishtirok etdi. Bemorlar 1-guruh (20 bemor) va 2-guruh (25 bemor) ga ajratildi. 1-guruh bemorlarda BMSIAG fonida rivojlangan bo‘lsa, 2-guruh bemorlarda BMSI Ateroskleroz fonida rivojlangan. Har bir bemordan chuqur anamnez yig’ilgan vanevrologik, instrumental va laborator tekshiruvlar o’tkazilgan. MRT-tekshiruvi orqalimiyadagi ishemik o‘zgarishlarning lokalizatsiyasi aniqlangan. MRTdagi shikastlanish o‘choqlarining lokalizatsiyasi subkortikal, periventrikulyar va bazal yadrolarning shikastlanishi yoki shikastlanmasligiga qarab guruhlarga bo’lindi.

Natijalar: 1-guruh: BMSI AG fonida rivojlangan (20 bemor):

13 ta bemor (65%)da **subkortikal** shikastlanish aniqlangan.

7 ta bemor (35%)da **periventrikulyar** shikastlanish mavjud.

12 ta bemor (60%)da **bazal yadrolar** shikastlanishi mavjud.

8 ta bemor (40%)da **bazal yadrolar** shikastlanmagan.

2-guruh: BMSI Ateroskleroz fonida rivojlangan (25 bemor):

10 ta bemor (40%)da **subkortikal** shikastlanish aniqlangan.

15 ta bemor (60%)da **periventrikulyar** shikastlanish mavjud.

9 ta bemor (36%)da **bazal yadrolar** shikastlanishi mavjud.

16 ta bemor (64%)da **bazal yadrolar** shikastlanmagan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra,AG fonida rivojlangan BMSIda subkortikal shikastlanish o’choqlari ko’p uchraydi (65%), Ateroskleroz fonida rivojlangan BMSIda periventrikulyar ishemiya o’choqlari(60%) ustunlik qiladi. Bazal yadrolar shikastlanishi AG fonida rivojlangan BMSI da ko’p miqdorda uchraydi (60%). 2-guruh bemorlarda bu ko’rsatkich past bo’lib (36%) Ateroskleroz fonida yuzaga kelgan BMSI da bazal yadrolar shikastlanishi kam kuzatiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki,BMSI bilan og’rigan bemorlarda MRT dagi ishemik o’choqlarning lokalizatsiyasi va kasallikning sababi o’rtasida bog’liqlik borligini ko’rsatadi. Bu xulosa amaliyotda bemorlarni davolash rejasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

YURAK ISHEMIK KASALLIGINI KLINIK INSTRUMENTAL VA MOLEKULYAR GENETIK TAHLILGA ASOSLANGAN HOLDA DAVOLASH STRATEGIYASINIINTEGRATSIYALASH

Sharifova M.F.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Kirish: Yurak ishemik kasalliklari butun dunyoda yetakchi o‘lim sabablari bo‘lib, ular yurak mushaklarining qon bilan ta’minlanishi yetishmasligi tufayli yuzaga keladi. Bu kasalliklar global sog‘liqni saqlash tizimiga katta yuk bo‘lib, ularning samarali davolash usullarini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi. Stenokardiya holatida klinik, instrumental va molekulyar-genetik tahlillarni integratsiyalash orqali aniqroq tashxislash va individual davolash imkoniyatlari oshadi, bu esa kasallikning asoratlarini kamaytirishga yordam beradi.

Tatdqiqot maqsadi: Stabil zo’riqish stenokardiya bilan xastalangan bemorlarni zamonaviy va a’nanaviy yondashuvlar bilan birga davolash

Tadqiqot usullari va materiallar: Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy amaliy tibbiyot markazida 80 nafar bemorlarni 2 guruhga bo’lingan holda tekshiruv o’tkazildi,ularning orasida asosiy guruh sifatida 39 nafar bemor olindi va an’anaviy tibbiyot usullari (fitoterapiya, akupunktura) bilan zamonaviy farmakoterapiya kombinatsiyasida davolanadi,41 nafar bemor esa nazorat guruhi sifatida faqat standart farmakoterapiya (beta-blokatorlar, nitratlar, statinlar) asosida davolandi. Bemorlarda klinik tahlil, ekg, exo-kardiografiya,genetik polimorfizmni o’rganish hamda Seattle Angina Questionnaire (SAQ) so’rovnomalar o’tkazildi.

Olingan natijalar: Natijalar tahlil qilinganda, SAQ so‘rovnomasini 80 nafar bemor orasidan 39 nafar an’anaviy tibbiyot usullari (fitoterapiya, akupunktura) qo‘llashganda 60%i stenokardiya simptomlari kamaygan. Nazorat guruhida esa 41 nafar bemordan 75% da simptomlarning sezilarli kamayishi kuzatilgan.An’anaviy usullar bilan davolangan bemorlarning 80%ida yon ta’sirlar kamaydi, bu esa zamonaviy tibbiyotga qaraganda xavfsizroq va samaraliroq natija berdi. Bu tadqiqot an’anaviy tibbiyotning stabil zo’riqish stenokardiyani davolashda muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.Instrumental tekshiruvlar natijalari ko’ra EKG va Exokardiografiya ma’lumotlariga ko‘ra, asosiy guruh bemorlarida yurak funksiyasi ko‘rsatkichlari asta-sekin yaxshilangani kuzatildi,nazorat guruhida esa tezkor va yuqori samaradorlik kuzatildi, lekin ba’zi hollarda (15% bemor) dorilar nojo‘ya ta’sir ko‘rsatgan shu bilan birgalikda 6 daqiqalik yurish testi (6MWT)asosiy guruh bemorlarida yurish masofasi o‘rtacha 18% ga oshgan.

Xulosa: Stabil zo’riqish stenokardiya davolashda klinik, instrumental, genetik va molekulyar tahlillarni integratsiyalash natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy va an’anaviy usullar kombinatsiyasi samarali bo‘lishi mumkin. SAQ so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra,zamonaviy davolash (beta-blokatorlar, nitratlar) bemorlarning simptomlarini tez va samarali kamaytiradi, hayot sifatini yaxshilaydi. Integratsiyalashgan yondashuv stabil stenokardiyani shaxsiylashtirilgan tarzda davolashga yordam beradi, kasallik rivojlanishini sekinlashtiradi va bemorlarning umumiy holatini yaxshilaydi.